



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

XIII–XIV ASRLARDA YAQIN VA OʻRTA SHARQDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT: ARAB VA TURKIY XALQLARNING IJTIMOIY, SIYOSIY VA MADANIY ALOQALARI

Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, mustaqil izlanuvchisi
Oriental universiteti, oʻqituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIII–XIV asrlarda Yaqin va Oʻrta Sharq, xususan, Misr va Shom hududlarida Mamluklar sultonligi hukmronligi davridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsiologiyistik jarayonlar tahlil qilingan. Muallif turkiy (qipchoq) harbiy elitasining hokimiyatga kelishi natijasida arab va turkiy tillar oʻrtasida shakllangan funksional ikki tillilik (diglossiya) fenomenini yoritib beradi. Tadqiqotda turkiy tillarning harbiy-maʼmuriy sohadagi oʻrni hamda arab tilining ilmiy-diniy ustuvorligi sharoitida yuzaga kelgan filologik anʼanalar-lugʻatshunoslik va grammatik asarlarning (Abu Hayyon, Qalqashandiy va b.) tarixiy zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, "qipchoq" etnonimining semantik rivoji va Mamluklar davri terminologiyasining manbashunoslikdagi ahamiyati koʻrsatib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: Mamluklar sultonligi, qipchoq tili, diglossiya, arab-turkiy aloqalari, Misr va Shom tarixi, harbiy elita, lugʻatshunoslik, Abu Hayyon, Qalqashandiy, sotsiologiyistik.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ НА БЛИЖНЕМ И СРЕДНЕМ ВОСТОКЕ В XIII–XIV ВЕКАХ: СОЦИАЛЬНЫЕ, ПОЛИТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ СВЯЗИ АРАБСКИХ И ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Боборажабов Мухаммадиқбол Эмомалиевич

Ташкентский государственный университет востоковедения, независимый соискатель
Университет Oriental, преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются социально-политические и социолингвистические процессы в период правления Мамлюкского султаната на Ближнем и Среднем Востоке, в частности, на территориях Египта и Шама в XIII–XIV веках. Автор освещает феномен функционального двуязычия (диглоссии), сформировавшегося между арабским и тюркскими языками в результате прихода к власти тюркской (кыпчакской) военной элиты. В исследовании обосновывается историческая необходимость возникновения филологических традиций-лексикографии и грамматических трудов (Абу Хайян, Калкашанди и др.) в условиях роли тюркских языков в военно-административной сфере и приоритета арабского языка в научной и религиозной среде. Также рассматриваются семантическое развитие этнонима «кыпчак» и значение терминологии мамлюкской эпохи в источниковедении.

Ключевые слова: Мамлюкский султанат, кыпчакский язык, диглоссия, арабско-тюркские связи, история Египта и Шама, военная элита, лексикография, Абу Хайян, Калкашанди, социолингвистика.

THE SOCIO-POLITICAL SITUATION IN THE NEAR AND MIDDLE EAST IN THE XIII-XIV th CENTURIES: SOCIAL, POLITICAL, AND CULTURAL RELATIONS BETWEEN ARABIC AND TURKIC PEOPLES

Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich

Tashkent State University of Oriental Studies, Independent Researcher
Oriental University, Lecturer

Abstract

This article analyzes the socio-political and sociolinguistic processes during the reign of the Mamluk Sultanate in the Near and Middle East, specifically in Egypt and Sham, during the 13th–14th centuries. The author highlights the phenomenon of functional bilingualism (diglossia) that emerged between the Arabic and Turkic languages following the rise of the Turkic (Kipchak) military elite to power. The study substantiates the historical necessity of philological traditions-lexicography and grammatical works (Abu Hayyan, Al-Qalqashandi, etc.)-within the context of the Turkic languages' role in the military-administrative sphere and the dominance of the Arabic language in scientific and religious fields. Furthermore, the semantic evolution of the ethnonym "Kipchak" and the significance of Mamluk-era terminology in source studies are examined.

Keywords: Mamluk Sultanate, Kipchak language, diglossia, Arab-Turkic relations, history of Egypt and Sham, military elite, lexicography, Abu Hayyan, Al-Qalqashandi, sociolinguistics.

XIII–XIV asrlar Yaqin va O'rta Sharq tarixida siyosiy hokimiyat markazlarining qayta taqsimlanishi, harbiy elita tarkibining etnik jihatdan o'zgarishi hamda madaniy-kommunikativ makonlarning yangicha shakllanishi bilan ajralib turadi. Bu jarayonlar ayniqsa Misr va Shom hududlarida tashkil topgan Mamluk sultonligi misolida yaqqol kuzatiladi. Mamluklar hukmronligi (1250–1517) davrida siyosiy va harbiy boshqaruv asosan turkiy (dastlab qipchoq, keyinchalik cherkas) kelib chiqishga ega qatlam qo'liga o'tgan bo'lsa-da, diniy-huquqiy va yozma ilmiy hayot arab tiliga tayanishda davom etdi.

Natijada arab va turkiy tillar o'rtasida raqobat emas, balki funksional taqsimotga asoslangan, sotsiolingvistik jihatdan qatlamlashgan ikki tillilik shakllandi. Aynan shu holat XIII–XIV asrlarda arab tilida turkiy tillarga bag'ishlangan lug'atlar va grammatik asarlarning paydo bo'lishiga muhim tarixiy zamin yaratdi [10;61 b]. Filologik nuqtai nazardan, bu davr til funksiyalarining qayta taqsimlanishi bilan xarakterlanadi: arab tili ilmiy, diniy, rasmiy va adabiy muloqotning yuqori registri sifatida saqlanib qolgan bo'lsa, turkiy tillar, xususan qipchoq va o'g'uz unsurlari, harbiy, saroy va kundalik muhitda keng qo'llanila boshladi.

Shu bilan birga, arab muhitida turkiy tillarni o'rganish, tavsiflash va ularni arab tilshunoslik an'analari asosida izohlash ehtiyoji kuchaydi. Bu ehtiyoj turkiy tillarni faqat "xorijiy til" sifatida emas, balki davlat va jamiyatning muayyan qatlamlari faoliyatida qo'llaniladigan muloqot vositasi sifatida qabul qilinishiga bog'liq edi. Natijada arab filologiyasining nahv, sarf va lug'atshunoslik kabi rivojlangan metodologik bazasi turkiy til hodisalarini izohlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi.

Mamluklar saltanati doirasida shakllangan kommunikativ tizim ikki registrli xususiyatga ega bo'ldi: arab tili diniy, ilmiy va rasmiy sohalarda ustun bo'lsa, turkiy til harbiy-amaliy va kundalik muloqotda faol qo'llanildi [9;35]. Bu esa tilshunoslik nuqtai nazaridan muhim natijaga olib kelib, muloqot ehtiyojining institutsionallasuvi turkiy tilni arab tilida o'rgatish va tavsiflashni talab qildi. Natijada arab muhitida turkiy tillarga bag'ishlangan lug'atlar va grammatik risolalar yuzaga keldi.

Mazkur davr ijtimoiy-siyosiy manzarasi arab-turkiy aloqalarning ko'p qatlamli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Davlat boshqaruvi va diplomatiya, harbiy tizim, savdo aloqalari hamda diniy-ta'limiy institutlar (madrassa va masjidlar) orqali turli tillar o'zaro ta'sirga kirishgan. Mamluklar saltanatida turkiy harbiy elita hukmron bo'lgan bir paytda, rasmiy yozishmalar va ilmiy muhitda arab tilining yetakchi o'rni saqlanib qolgan. Bu esa tarjimonlik, ikki tillilik va filologik vositachilikning tizimli shakllanishiga olib keldi. Shu sharoitda tilni tavsiflash faqat amaliy ehtiyoj bilan cheklanmay, turkiy til materiallarini arab filologik an'analari doirasida

nazariylashtirishga ham zamin yaratdi.

Mamluk davlati tarixshunoslikda markazi Qohira bo'lgan, Misr va Shomni qamrab olgan harbiy-boshqaruv tizimi sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda Misr Sharqiy arab dunyosining muhim siyosiy va madaniy markaziga aylangan. 1261-yilda Qohirada abbosiy xalifalik ramzining qayta tiklanishi Mamluklar siyosiy legitimatsiyasining muhim elementi bo'lgan. XIII asr o'rtalaridan boshlab mo'g'ullar omilining kuchayishi mintaqadagi siyosiy muvozanatni o'zgartirdi. Mamluklar va ilxoniylar o'rtasidagi qarama-qarshilik harbiy tajribani kuchaytirish bilan birga, diplomatik aloqalar va transregional kommunikatsiyani ham kengaytirdi [3;94].

Bu jarayonlarda turkiy tillar asosan harbiy-ma'muriy muloqot vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, arab tili ilmiy va rasmiy nutqning asosi bo'lib qoldi. Natijada ikki markazli til tizimi shakllanib, turkiy tilni arab tilida o'rgatuvchi va tavsiflovchi maxsus filologik adabiyot yuzaga keldi. A.A. Filippov Mamluk davrini musulmon Misri tarixidagi muhim bosqich sifatida baholab, uni Bahriy (asosan qipchoq-turkiy) va Burjiy (ko'proq cherkas) davrlariga ajratadi. Ayniqsa Bahriy bosqich Mamluk davlatining siyosiy va harbiy yuksalish davri sifatida ajralib turadi. Bu tasnif arab tilida turkiy tillarga oid lug'at va grammatik asarlarning aynan shu muhitda shakllanganini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, XIII asr o'rtalaridagi hokimiyat almashinuvi nafaqat siyosiy, balki til va ijtimoiy kapitalning qayta taqsimlanishi sifatida ham baholanishi mumkin. Harbiy elita tarkibining turkiylashuvi saroy, qo'shin va ma'muriy muhitda turkiy tilning amaliy ahamiyatini oshirdi, biroq fiqh, qoziyat, mudarrislik va tarixnavislik kabi yuqori registrlarda arab tili ustunligini saqlab qoldi. Shu bois filologik adabiyot aynan ushbu ikki til maydonining tutashgan nuqtasida shakllandi.

Misrda Mamluklar hukmronligi Yaqin Sharq tarixida o'ziga xos siyosiy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda Misr mintaqaning muhim siyosiy markaziga aylangan bo'lib, mamluk tizimi harbiy elita asosida davlat boshqaruvi, siyosiy markazlashuv va diniy legitimatsiya mexanizmlarining uyg'unlashgan shaklini ifodalaydi. Shu bois Mamluklar davrini o'rganish zamonaviy mintaqaviy jarayonlarni anglashda muhim metodologik ahamiyatga ega.

"Mamluk" atamasi dastlab "qaram" yoki "qul" ma'nosini bildirgan bo'lsa-da, tarixiy kontekstda u harbiy xizmatga tayyorlangan va keyinchalik siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamni anglatadi. Bu qatlam asosan yosh asirlar yoki sotib olingan shaxslardan shakllantirilib, maxsus harbiy tayyorgarlik orqali professional jangchilarga aylantirilgan. Shu tariqa qullik maqomidan boshlangan tizim keyinchalik siyosiy elita shakllanishiga olib kelgan institutsional mexanizmga aylangan [1;80].

Mamluk elitasining mahalliy arab aholisidan etnik jihatdan farqlanishi til sohasida ham o'z aksini topdi. Turkiy (asosan qipchoq) til harbiy guruhning ichki kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qilgan bo'lsa, arab tili umumiy ilmiy va diniy muhitda yetakchi bo'lib qoldi. Shu bilan birga, bu farqlanish mutlaq ajralishga olib kelmay, aksincha tarjima, izohlash va grammatik tavsiflash jarayonlarini kuchaytirdi. Natijada "til chegarasi" o'ziga xos filologik ko'priq vazifasini bajara boshladi.

Mazkur holat dissertatsiya mavzusidagi terminologik qatlamni tarixiy jihatdan izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "qipchoq" atamasining tarixiy-etimologik rivoji bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu atama ilk bor milodiy VIII asrga oid qadimgi runiy bitiklarda qayd etilgan bo'lib, musulmon manbalarida IX asrda arab geografi Ibn Xurdodbeh tomonidan tilga olingan. G'arbiy Turk xoqonligi qulagach, qipchoqlar dastlab qimoqlar tarkibida shakllangan bo'lsa, keyinchalik mustaqil siyosiy kuch sifatida ajralib chiqib, g'arbga siljigan.

XI asrga kelib qipchoqlar Orol va Kaspiybo'yi hududlarida hukmronlikni qo'lga kiritib, "O'g'uz dashti" o'rniga "Dashti Qipchoq" atamasining shakllanishiga sabab bo'ldi. Ular keyinchalik Sharqiy Yevropaga qadar yetib borib, Rus, Vizantiya va Vengriya kabi davlatlar bilan aloqaga kirishgan. Qipchoqlar keng hududda yashagan turkiy xalq sifatida turli manbalarda

turlicha nomlar bilan tilga olingan: islomiy manbalarda “qipchoq”, “qifchoq”, Yevropada “kuman”, “kun”, ruslarda esa “poloves” shaklida uchraydi.

Qipchoq tilining tarixiy manbalari bugungi kungacha yetib kelgan bo‘lib, ular orasida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari, rus solnomalaridagi materiallar, shuningdek Mamluk davrida yaratilgan arabcha-turkiy lug‘atlar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Abu Hayyonning “Kitob ul-idrok li lison ul-atrok”, “Kitob at-tuhfat uzzakiyyata fil lug‘at it-turkiyya” kabi asarlar turkiy tillarni ilmiy asosda tavsiflashga qaratilgan muhim manbalardir. Bundan tashqari, “Kodeks Kumanikus” yodgorligi ham qipchoq tilining yozma shakllarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur manbalarda “qipchoq” atamasi ko‘pincha qabila yoki xalq nomini bildiradi. Bu holat qadimgi turkiy bitiklarda ham kuzatiladi. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida “qipchoq” atamasini uch ma’noda qo‘llaydi: turkiy qabilalar guruhi, ular yashaydigan hudud hamda muayyan joy nomi sifatida. Bu esa atamaning ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega ekanini ko‘rsatadi.

Mamluklar davrida qipchoq tili alohida mavqega ega bo‘lib, ayniqsa harbiy va saroy muhitida faol qo‘llanilgan. Shu bilan birga arab tili ilm-fan va rasmiy yozishmalar tili sifatida ustunligini saqlab qolgan. Bu ikki tilli muhit turkiy tilni arab tilida tavsiflash, izohlash va tizimlashtirish ehtiyojini kuchaytirgan. Natijada lug‘atlar, grammatik risolalar va tarjima qo‘llanmalari yuzaga kelgan [7;45].

Qipchoq tilining hozirgi o‘zbek tiliga aloqasi ham e’tiborga loyiqdir. O‘zbek xalqining etnik shakllanishida qipchoq unsurlar muhim o‘rin tutgan bo‘lib, bu holat til tizimida ham aks etgan. Xususan, qipchoq lahjasining unsurlari zamonaviy o‘zbek tilida, shuningdek qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tatar va boshqird tillarida ham saqlanib qolgan.

XIII–XIV asrlarda turkiy tillarning arab dunyosidagi o‘rni yanada mustahkamlandi. Bu davrda ular yangi hodisa sifatida emas, balki allaqachon tanilgan, ammo institutsional jihatdan kuchaygan til sifatida namoyon bo‘ldi. Mamluk davlati devonlarida, saroy protokolida va rasmiy yozishmalarda qat’iy til me’yorlari shakllandi. Bu esa tilni tavsiflashga oid “metatil”ning rivojlanishiga olib keldi. Qalqashandiy kabi mualliflar boshqaruv tilini tizimlashtirib, ilmiy uslubning shakllanishiga hissa qo‘shgan.

XIII asrning ikkinchi yarmida Mamluklar tashqi siyosatda ham muhim rol o‘ynadi. Ular mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi asosiy kuch sifatida shakllanib, mintaqadagi siyosiy yetakchiga aylandi. Oltin O‘rda bilan aloqalar, xususan Berke xon davridagi yaqinlashuv, arab-turkiy aloqalarni yanada kuchaytirdi. Bu jarayon turkiy tilning saroy va harbiy muhitdagi ahamiyatini oshirib, uning kengroq geosiyosiy makonda qo‘llanishiga zamin yaratdi.

Mazkur geosiyosiy sharoitda turkiy til faqat mahalliy aloqa vositasi bo‘lib qolmay, balki keng Yevroosiyo hududi bilan bog‘liq ko‘p qatlamli til sifatida namoyon bo‘ldi. Shu sababli arab olimlari uchun uni tizimli ravishda o‘rganish zarurati kuchaydi. Natijada lug‘atlar, grammatik asarlar va tarjimonlik qo‘llanmalari paydo bo‘ldi.

Mamluklar siyosiy jihatdan turkiy elita bo‘lsa-da, davlatning diniy va ilmiy tizimi arab tiliga tayangan. Arab tili tarixnavislik, ma’muriyat va diniy-ilmiy faoliyatning asosiy vositasi bo‘lib qoldi. Al-Umariy, al-Maqriziy va boshqa mualliflarning asarlari Mamluk davri terminologiyasini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Savdo va shahar hayotida ham arab va turkiy tillarning o‘zaro aloqasi kuchli bo‘lgan. Yirik markazlarda ko‘ptilli muhit shakllanib, bu amaliy tajriba yozma shaklda lug‘atlar va grammatik risolalar orqali ifodalangan. Natijada arab tili boshqa tillarni tavsiflovchi “metatil” vazifasini bajargan.

Mamluk davri manbalarini o‘rganish nafaqat siyosiy tarixni, balki til va identifikatsiya masalalarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Baybars al-Mansuriy, al-Maqriziy va Ibn Tag‘ribirdiy kabi tarixchilar asarlari harbiy elita terminologiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Qalqashandiyning “Subh al-a‘sha” asari esa rasmiy yozishmalar tilini tiklashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, Mamluk davridagi arab-turkiy til aloqalari ko‘p qatlamli va funksional jihatdan murakkab bo‘lib, bu holat filologik tadqiqotlar, xususan lug‘atshunoslik va grammatik tavsiflarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шайхисламов, Т. Р. Шайхисламов, Р. Б. Мамлюки и становление мамлюкской системы власти в Египте. Вестник Башкирского университета. Т. 20. №2 751. 2015.
2. Кошғарий М. Девону луғоти-т-турк. (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Содиқов Қ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2017, -488 б.; Gökbel A.Kipçak Türkleri Siyasî Ve Dinî Tarihi. - Ankara: Ötüken Neşriyat A.Ş. 2020, - B.35
3. Филиппов, А. А. Становление государства мамлюков в Египте во второй половине XIII века. Минск, ИВЦ Минфина, 2021.
4. Кляшторный С.Г. Кипчаки в рунических памятниках // Türccologica, 1986. К восьмидесятилетию академика А.Н. Кононова. Л.: 1986. С. 153-164.
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2-жилд. -Т.: Миллий энциклопедия, 2000, 149-150-б.
6. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. -Тошкент: 1976, -Б.34.
7. Ibn Fazl Allah al-‘Umarī, Aḥmad ibn Yaḥyá, “al-Ta‘rīf bi’l-mustalah al-sharīf” Publisher, Maṭba‘at al-‘Āshimah, 1894; Original from, Harvard University; Digitized, Jul 15, 2008.
8. Ibn Fazl Allah al-‘Umarī, Aḥmad ibn Yaḥyá, Masālik al-abṣār fī mamālik al-amṣār. [مسالك الابصار في ممالك الامصار] 1301-1349، احمد بن يحيى، ابن فضل الله العمري، 1710.
9. al-Qalqashandī A. Kitāb Ṣubḥ al-a‘shā fī ṣinā‘at al-inshā’. al-Qāhira, 1913.
10. Petry C. F. The Mamluk Sultanate: A History. Cambridge: Cambridge University Press, 2022.